

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024- yilning yanvar-iyun oylarida Qashqadaryo viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 29 839,8 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2023- yilning yanvar-iyun oylari bilan taqqoslaganda 6,0 % ga o'sdi.


YAHM deflyator indeksi 2023- yilning yanvar-iyun oylari narxlariga nisbatan 108,8 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Qashqadaryo viloyatining qo'shgan hissasi 5,3 % ga yetdi.

## 2024- yilning yanvar-iyun oylarida Qashqadaryo viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



- YAHM o'sish sur'ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo'shgan hissasi



## 2023-2024- yillarning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
	2023- yil	2024- yil	
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>25 857,0</b>	<b>29 839,8</b>	<b>106,0</b>
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	24 802,7	28 970,6	106,1
mahsulotlarga sof soliqlar	1 054,3	869,2	104,6
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>24 802,7</b>	<b>28 970,6</b>	<b>106,1</b>
<b>qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	<b>8 966,5</b>	<b>9 914,7</b>	<b>103,6</b>
<b>sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>6 550,3</b>	<b>7 906,6</b>	<b>110,2</b>
sanoat	4 785,4	5 817,6	107,8
qurilish	1 764,9	2 089,0	116,7
<b>xizmatlar</b>	<b>9 285,9</b>	<b>11 149,3</b>	<b>105,6</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 745,1	2 053,1	109,0
tashish va saqlash, axborot va aloqa	1 258,4	1 506,0	109,7
boshqa xizmat tarmoqlari	6 282,4	7 590,2	103,8



Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 8 341,2 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3,7 % ga yuqoridir.

## 2023-2024- yillarning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi (ming so'mda)



## 2023-2024- yillarning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)



## 2023-2024- yillarning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

	2023- yil	2024- yil
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	95,9	97,1
mahsulotlarga sof soliqlar	4,1	2,9
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<b>qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	<b>36,2</b>	<b>34,2</b>
<b>sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>26,4</b>	<b>27,3</b>
sanoat	19,3	20,1
qurilish	7,1	7,2
<b>xizmatlar</b>	<b>37,4</b>	<b>38,5</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	7,0	7,1
tashish va saqlash, axborot va aloqa	5,1	5,2
boshqa xizmat tarmoqlari	25,3	26,2




2024- yilning yanvar-iyun oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 97,1 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,9 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 34,2 % ni, sanoat tarmog‘i 20,1 % ni, qurilish 7,2 % ni va xizmatlar sohasi 38,5 % ni tashkil qildi.

## 2023-2024- yillarning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2023- yil



2024- yil




● Yalpi qo‘shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar

YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 1,3 f.p. (2023- yilning yanvar-iyunida – 0,9 f.p.), sanoat tarmog'i – 1,4 f.p. (2023- yilning yanvar-iyunida – 1,1 f.p.), qurilish tarmog'i – 1,1 f.p. (2023- yilning yanvar-iyunida – 0,7 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 2,0 f.p. (2023- yilning yanvar-iyunida – 2,1 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.


Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,2 f.p. (2023- yilning yanvar-iyunida – 0,3 f.p.)ga ko'paydi.

## 2024- yilning yanvar-iyun oylarida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)




2024- yilning yanvar-iyun oylarida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 103,6 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 34,2 %), sanoatda – 107,8 % (20,1 %), qurilishda – 116,7 % (7,2 %), xizmatlar sohasida – 105,6 % ni (38,5 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 109,0 % (7,1 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 109,7 % (5,2 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 103,8 % dan (26,2 %) iborat bo'ldi.

## 2023-2024- yillarning yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2024- yilning yanvar-iyun oylarida YAHM deflyatori indeksi 2023- yilning yanvar-iyun oylaridagi narxlarga nisbatan 108,8 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari xizmatlar sohasida – 113,7 % va sanoatda – 112,8 % qayd etildi.

## 2023-2024- yillarning yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)





2024-yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik 18 705,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi (2023- yilning yanvar-iyun oylarida – 15 952,9 mlrd. so‘m). YAHMdagi ulushi 64,6 % ni (2023- yilning yanvar-iyun oylarida – 64,3 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog‘liq.

## 2023-2024- yillarning yanvar-iyun oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

Hajmi, mlrd.so‘m

Ulushi, % da

2023- yil

15 952,9

64,3 %

2024- yil

18 705,2

64,6 %

